



INVESTITSION LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISHDA BANK KREDITLARINING ROLINI OSHIRISH YO'LLARI

prof. **Mamadiyarov Zokir**

Ma'mun universiteti,

Alfraganus universiteti

ORCID: 0000-0002-1508-488X

mamadiyarov_zokir@mamunedu.uz

z.mamadiyarov@afu.uz

Muxitdinov Sidikxo'ja

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi

ORCID: 0009-0000-9327-7161

mukhitdinov21@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada investitsion loyihalarni moliyalashtirishda bank kreditlarining roli va uning samaradorligini oshirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Hozirgi kunda banklar investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda asosiy moliyaviy manbalardan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Biroq moliyaviy tizimdagi turli muammolar, risklarni baholashdagi qiyinchiliklar, garovga bo'lgan talabning yuqoriligi va uzoq muddatli resurslar yetishmasligi bank kreditlaridan samarali foydalanishga to'sqinlik qilmoqda. Maqolada investitsion loyihalarni moliyalashtirish manbalari, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha o'zgarishi, bank kreditlarining oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida kredit ajratish dinamikasi va tadbirkorlik faoliyatiga ajratilgan kreditlar ulushi solishtirma jadvallar orqali tahlillar olib borilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bank kreditlarining investitsiya jarayonidagi ishtirokini kengaytirish va investitsion loyihalarni moliyalashtirishda bank kreditlarining rolini oshirish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya, investitsion loyiha, bank krediti, investitsion loyihalarni moliyalashtirish, risk.

ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ РОЛИ БАНКОВСКИХ КРЕДИТОВ В ФИНАНСИРОВАНИИ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ

проф. **Мамадияров Зокир**

Университет Маъмуна,

Университет Альфраганус

Мухитдинов Сидикхужа

Министерства экономики и финансов Республики Узбекистан

Аннотация. В статье анализируется роль банковских кредитов в финансировании инвестиционных проектов и возможности повышения их эффективности. В настоящее время банки служат одним из основных финансовых источников финансирования инвестиционных проектов. Однако различные проблемы в финансовой системе, трудности в оценке рисков, высокая потребность в залоговом обеспечении и нехватка долгосрочных ресурсов препятствуют эффективному использованию банковских

кредитов. В статье анализируются источники финансирования инвестиционных проектов, динамика инвестиций в основной капитал по источникам финансирования, динамика банковских кредитов в рамках программ развития семейного предпринимательства, доля кредитов, направляемых на предпринимательскую деятельность, с помощью сравнительных таблиц. По результатам исследований разработаны научные предложения и рекомендации по расширению участия банковских кредитов в инвестиционном процессе и повышению роли банковских кредитов в финансировании инвестиционных проектов.

Ключевые слова: инвестиции, инвестиционный проект, банковский кредит, финансирование инвестиционных проектов, риск.

WAYS TO INCREASE THE ROLE OF BANK LOANS IN FINANCING INVESTMENT PROJECTS

prof. **Mamadiyarov Zokir**

Mamun University,

Alfraganus University

Mukhitdinov Sidikhoja

Ministry of Economy and Finance of the Republic of Uzbekistan

Abstract. This article analyzes the role of bank loans in financing investment projects and the possibilities of increasing their effectiveness. Currently, banks serve as one of the main financial sources in financing investment projects. However, various problems in the financial system, difficulties in assessing risks, high collateral requirements and lack of long-term resources hinder the effective use of bank loans. The article analyzes the sources of financing of investment projects, changes in investments in fixed capital by sources of financing, the dynamics of bank loans within the framework of family entrepreneurship development programs, and the share of loans allocated to entrepreneurial activity through comparative tables. According to the results of the study, scientific proposals and recommendations were developed to expand the participation of bank loans in the investment process and increase the role of bank loans in financing investment projects.

Keywords: investment, investment project, bank loan, financing of investment projects, risk.

Kirish.

Investitsiyalar zamonaviy iqtisodiyotda nihoyatda muhim rol o'ynaydi, chunki investitsiyalar bo'sh moliyaviy resurslarga ega bo'lgan bozor subyektlari uchun foyda olish maqsadida jamg'armani samarali joylashtirish, iqtisodiyot tarmoqlarining ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni kengaytirish, aholini ishsiz qatlamlarini ushbu tarmoq korxonalarining ish bilan ta'minlash hamda shu orqali aholi farovonligiga erishishga yordam beradi.

Investitsiyalarni moliyalashtirish ayrim manbalarining o'rni va roli, ko'p jihatdan, makroiqtisodiy muvozanat hamda o'sish barqarorligi, mulkchilik shakllarining rivojlanish darajasi va o'zaro nisbatlari, bank-moliya tizimining rivojlanganligi va boshqalar bilan belgilanadi. Investitsiya loyihalari bo'yicha qarorlar qabul qilishda iqtisodiyotning moliya sektorining rivojlanishidagi obyektiv shart-sharoitlarni, investitsiya qarorlarini qabul qilishga aniqlik kiritadigan va ta'sir ko'rsatadigan moliyaviy vositachilik darajasini, ulardan foydalanish vositalari hamda mexanizmlarini hisobga olishga to'g'ri keladi.

Har qanday iqtisodiyotning barqaror va uzoq muddatli rivojlanishi uchun investitsiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Xususan, investitsion loyihalar – ya'ni, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, mavjud infratuzilmani modernizatsiya qilish va innovatsion texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan tashabbuslar – mamlakatning sanoat salohiyati, eksport imkoniyatlari va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Bunday loyihalarni

samarali amalga oshirish esa moliyaviy resurslar bilan ta'minlashga, xususan, bank kreditlarining mavjudligi va maqbul shartlar bilan taqdim etilishiga bevosita bog'liq.

Bank kreditlari investitsion faoliyatni moliyalashtirishning eng keng tarqalgan va strategik ahamiyatga ega manbalaridan biridir. Ular orqali loyihalarni boshlang'ich bosqichdan amaliy ijrogacha olib borish, ayniqsa, kichik va o'rta biznes subyektlari uchun juda muhimdir. Shu bilan birga, kredit resurslaridan samarali foydalanish loyihaning moliyaviy barqarorligi, kapital oqimi va qaytarish qobiliyatini talab qiladi. Har bir investitsion loyiha muayyan tavakkalchiliklar va noaniqliklar bilan bog'liq bo'lgani uchun, banklar bunday moliyalashtirish qarorlarini qabul qilishda atroflicha tahlil va baholash ishlarini olib boradilar.

Investitsion loyihalarni moliyalashtirishda bank kreditlarining o'rnini tahlil qilish, avvalo, bank tizimi qanday moliyaviy vositalar orqali bunday loyihalarni qo'llab-quvvatlayotganini o'rganishni talab etadi. Shu bilan birga, kredit siyosatining shartlari – foiz stavkalari, to'lov muddatlari, kafolatlar va risklar nizomi – loyihaning umumiy samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Bunday sharoitda, davlat siyosati, jumladan, imtiyozli kredit dasturlari, kafolat jamg'armalari va subsidiyalar ham banklar faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ayniqsa, o'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda bank sektorining investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi roli juda muhimdir. So'nggi yillarda mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, banklar faoliyatini liberallashtirish, xorijiy kapital ishtirokini oshirish va investitsiya muhitini yaxshilash kabi chora-tadbirlar ushbu jarayonni jadallashtirmoqda. Shu bois, investitsion loyihalarni moliyalashtirishda bank kreditlarining real ahamiyati, imkoniyatlari va mavjud muammolarini tahlil qilish bugungi kun uchun dolzarb hisoblanadi.

Mazkur maqolada bank kreditlarining investitsion loyihalarga ta'siri, ular orqali amalga oshirilgan loyihalarning samaradorligi, tavakkalchilikni boshqarish mexanizmlari hamda banklar va tadbirkorlar o'rtasidagi hamkorlik muammolariga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, xorijiy tajriba asosida investitsion loyihalarni moliyalashtirishning zamonaviy usullari va tavsiyalari ham ko'rib chiqiladi. Ushbu tahlil investitsion muhitni yaxshilash va loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Adabiyotlar sharhi.

Investitsion loyihalarni moliyalashtirishda bank kreditlarining roli xalqaro va mahalliy iqtisodchilar tomonidan keng o'rganilgan masalalardan biri hisoblanadi. Investitsion loyihalarni moliyalashtirishda bank kreditlarining roli ahamiyatli bo'lib, u bank kredit portfelini optimallashtirishda, risklarni boshqarishda muhim sanaladi. Bank kreditlari investitsion loyihalarni moliyalashtirishda muhim ahamiyat kasb etishi ularning moliyaviy moslashuvchanligidadir.

Bank kreditlari loyihani moliyalashtirishda, ayniqsa yirik, uzoq muddatli investitsiyalar uchun muhim ahamiyatga ega. Banklar bu orqali nafaqat zarur kapitalni taqdim etadilar, balki loyihaning muvaffaqiyatli amalga oshishida maslahatchi rolini ham bajaradi (Power & Mbianda, 2022).

Bank kreditlari investitsiyalarni moliyalashtirishning muhim tarkibiy qismi bo'lsa-da, ularning samaradorligiga turli omillar, jumladan, normativ-huquqiy baza, iqtisodiy sharoitlar va turli tarmoqlarning o'ziga xos ehtiyojlari ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Nigeriyada, nobank kredit institutlar ham bank kreditlarini ajratishda muhim rol o'ynaydi, bu turli xil moliyaviy ekotizimlar investitsiya natijalarini yaxshilashi mumkinligini ko'rsatadi (Nnaemeka va Dara, 2022). Bu investitsiya loyihalarini samarali qo'llab-quvvatlash uchun ham rasmiy, ham norasmiy moliyalashtirish mexanizmlarini o'zida mujassam etgan muvozanatli yondashuv muhimligini ta'kidlaydi.

Avramovic (1995) o'zining tadqiqotida rivojlanayotgan mamlakatlarda bank kreditlari orqali investitsiyalarni moliyalashtirishda yuzaga keladigan to'siqlar, jumladan, yuqori foiz stavkalari, noto'liq kafolat tizimi va moliyaviy resurslarni taqsimlashdagi samarasizliklarga

e'tibor qaratadi. Uning fikricha, markazlashtirilgan bank siyosati va qulay moliyaviy muhit investisiya faolligini oshiradi.

Levine (2005) bank tizimi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi munosabatni tahlil qilar ekan, samarali banklar investisiya resurslarini to'g'ri taqsimlash orqali iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Uningcha, banklar faqat qarz beruvchi emas, balki investision qarorlarda ishtirok etuvchi muassasa sifatida qaralishi kerak.

Demirgüç-Kunt va Maksimovic (2002) bank kreditlari va korporativ investisiya faoliyatini o'zaro bog'liq holda o'rganib, bozor sharoitida faoliyat yurituvchi kompaniyalar uchun banklar tomonidan taklif etilayotgan kreditlarning hajmi va shartlari ularning loyihaviy faolligiga bevosita ta'sir qilishini isbotlaydilar.

Mahalliy olimlardan Haydarov (2020) o'z tadqiqotlarida O'zbekistonda investisiya loyihalarini moliyalashtirishda banklar rolini tahlil qilib, ayniqsa, yirik infratuzilmaviy loyihalarda tijorat banklarining moliyaviy vositachi sifatidagi ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. U joriy bank tizimida investisiya kreditlarini berishdagi mavjud byurokratik to'siqlar va qaytarish muddatlarining uzoqligini asosiy muammo sifatida ko'rsatadi.

Ergashev (2019) esa investision faollikni oshirish uchun banklar faoliyatida innovasion moliyalashtirish vositalarini – masalan, sindikatlashgan kreditlar, investisiya jamg'armalari bilan hamkorlik kabi – keng joriy qilish zarurligini taklif etadi.

Xalqaro amaliyotda World Bank (2021) hisobotiga ko'ra, investision loyihalarni moliyalashtirishda banklar tomonidan berilgan kreditlar ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va umumiy iqtisodiy o'sishga xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, yuqori risk, uzoq muddatli qaytarish va ma'lumotlarning etishmasligi kabi omillar banklarni investisiya kreditlaridan ehtiyot bo'lishga majbur qiladi.

Evropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (EBRD, 2023) tomonidan taqdim etilgan tahlilda esa bank kreditlarining samarali bo'lishi uchun ilg'or moliyaviy baholash tizimlari, kredit tavakkalchiliklarini xedjirlash va davlat tomonidan kafolatlash mexanizmlarini joriy qilish tavsiya etilgan.

Ayniqsa makroiqtisodiy beqarorlik kuzatilgan hududlarda tartibga solishda ham bank kreditining ahamiyati sezilarlidir. Bu investitsiya jarayonlariga to'sqinlik qiluvchi iqtisodiy bo'lmagan omillar va tarkibiy muammolarni hal qilishni o'z ichiga oladi (Mazloev va boshq., 2023).

Bugungi kunda banklar kreditlar orqali kredit va investitsiya portfellarini optimallashtirish natijasida investitsiyalardagi rolini oshirishlari mumkin. Bu foydani ko'paytirish va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash uchun qimmatli qog'ozlar bozori va kredit bozori o'rtasida resurslarni taqsimlashni muvozanatlashni o'z ichiga oladi (Shtefan, n.d.).

Investitsion loyihalarni faol qo'llab-quvvatlash uchun banklar moliyaviy risklarni samarali boshqarish zarur. Investitsion kredit oluvchilarning kreditga layoqatlilikini baholash va moliyaviy risklarni yanada samarali boshqarish uchun risklarni boshqarish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalar qo'llanilishi mumkin (Mamadiyarov, 2022; Makhmudov va boshq., 2024; Toshtemirovich, 2021).

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur maqolada investision loyihalarni moliyalashtirish xususan, bank kreditlari orqali moliyalashtirishning ahamiyati va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan. Shuningdek, tadqiqot metodologiyasi sifatida ilmiy, tarixiy va amaliy manbalarni qiyosiy tahlilida ilmiy abstraksiyalash, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish va segmentli tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tijorat banklari tomonidan investitsiya operatsiyalarini amalga oshirishning ahamiyatini quyidagicha izohlash mumkin:

- bank operatsiyalari turlarini kengaytirish, diversifikatsiyalash orqali;
- bank operatsiyalarini kengaytirish hisobiga bank risklarini qisqartirish;
- bankning qimmatli qog'ozlar bozorida faol ishtirkochi bo'lishini ta'minlash;
- bankning mijozlarini ko'proq jalb qilinishini ta'minlash;
- bankning daromad manbalarini kengaytirish.

Tijorat banklari tomonidan investitsion faoliyat olib borishdan asosiy maqsad ularning daromadlilik va likvidlilikini ta'minlashdan iborat.

1-jadval

Investitsion loyihalarni moliyalashtirish manbalari

Tashqi manbalar	Ichki manbalar	Shariklik asosidagi manbalar
Xalqaro moliya institutlari (Jahon banki, OTB va h.k.)	Davlat byudjeti mablag'lari	Davlat-xususiy sheriklik (DXSh)
Tashqi investorlar	Mahalliy bank kreditlari	Venchur mablag'lar
Tashqi qarzlar (suveren va korporativ)	Korxonaning o'z mablag'lari (amortizatsion ajratmalar, sof foyda)	Kraudfanding platformalari
	Qimmatli qog'ozlar chiqarish (aksiyalar, obligasiyalar)	

Manba: mualliflar tomonidan tuzildi.

Investitsion loyihalarni moliyalashtirishda tashqi manbalar mamlakat tashqarisidan jalb qilinadigan moliyaviy resurslarni o'z ichiga oladi. Ulardan birinchisi, Xalqaro moliya institutlari bo'lib ya'ni Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki (OTB), Islom taraqqiyot banki kabi xalqaro moliyaviy tashkilotlar bo'lib ular uzoq muddatli va imtiyozli kreditlar, grantlar yoki texnik yordam shaklida mablag' taqdim etadi. Bu manbalar ayniqsa infratuzilma va ijtimoiy loyihalar uchun muhimdir. Ikkinchisi, tashqi investorlar bo'lib, ular chet el investorlar bo'lib, shu jumladan strategik va portfel investorlar, to'g'ridan-to'g'ri investisiyalar orqali loyihalarga kapital kiritish orqali ishtirok etadi. Uchinchisi, tashqi qarzlar bo'lib, bu suveren (davlat) va korporativ (korxonalar tomonidan olinadigan) qarzlarni o'z ichiga oladi. Ular xalqaro moliya bozorlari yoki ikki tomonlama shartnomalar asosida jalb qilinadi.

Ichki moliyalashtirish manbalari mamlakat ichidagi iqtisodiy sub'ektlar orqali moliyalashtiriladi. Bular davlat byudjeti mablag'lari, mahalliy bank kreditlari, korxonaning o'z mablag'lari va qimmatli qog'ozlar chiqarish orqali amalga oshiriladi.

Investitsion loyihalarni moliyalashtirishda davlat va xususiy sektor, yoki jamoatchilik orqali amalga oshirish ham mumkin. Bunda davlat va xususiy sektor hamkorlikda loyiha amalga oshirishi va moliyalashtirishi orqali infratuzilma va kommunal xizmatlarda keng qo'llaniladi. Yangi va yuqori texnologiyali loyihalar uchun yuqori tavakkalchilik asosida moliyalashtirish. Venchur kapital loyihaning o'sish potensialini baholab investisiya qiladi. Jamoatchilikdan onlayn platformalar orqali mablag' yig'ish usuli. Bu usul asosan kichik va innovatsion loyihalar uchun mos keladi.

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida tijorat banklarining investitsion siyosati bank faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi va banklarning likvidlilikini ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi. Xalqaro amaliyotning ko'rsatishicha, tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish natijasida iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish, banklar faoliyatini yanada diversifikatsiyalash va kengaytirish hamda yangi daromad manbalarining yuzaga kelishiga sharoit yaratadi.

**Asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha
o'zgarishi, mlrd. so'mda**

Moliyalashtirish manbalari	2022 yil	2023 yil	O'zgarish, foizda
Jami investisiyalar	269 857,5	352 064,1	22,1
Markazlashgan investisiyalar	41 548,1	44 806,8	-0,7
Byudjet mablag'lari	20 910,1	20 447,0	-11,4
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari	2 447,9 1	554,2	-42,0
Hukumat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar	15 256,5	21 153,4	30,3
Markazlashmagan investisiyalar	228 423,6	307 257,3	26,2
Korxonalarining o'z mablag'lari	84 513,9	84 936,4	-2,7
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiya va kreditlar	97 095,4	166 731,4	56,2
shu jumladan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar	37 006,3	84 311,6	96,4
Aholi mablag'lari	25 738,1	33 321,7	8,9
Tijorat banklari kreditlari	21 076,2	22 267,8	17,9

Manba: mualliflar tomonidan tuzildi.

Xususan, 2023 yilda iqtisodiyotdagi barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan o'zlashtirilgan investisiyalar hajmi 2022 yilga nisbatan real hisobda 22,1 foizga o'sib, 352,1 trln so'mga etdi. Bunda, markazlashmagan investisiyalar hajmi 2022 yilga nisbatan 26,2 foizga o'sib 307,3 trln so'mni, markazlashgan investisiyalar esa 0,7 foizga qisqarib 44,8 trln so'mni tashkil etdi.

2023 yilida o'zlashtirilgan investisiyalarning moliyalashtirish manbalari tarkibida markazlashmagan investisiyalarning ulushi 2022 yildagi 84,6 foizdan 87,3 foizgacha oshgan bo'lsa, markazlashgan investisiyalar ulushi esa 15,4 foizdan 12,7 foizgacha qisqargan. Markazlashmagan investisiyalarning o'sishi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar hajmining qariyb 2,0 barobarga hamda tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'larining 17,9 foizga, aholi mablag'larining 9 foizga oshganligi hisobiga shakllangan. Markazlashgan investisiyalar hajmining real o'sishi qariyb o'tgan yil darajasida saqlanib qolgan bo'lsada, uning tarkibida hukumat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 1,3 barobarga ko'paydi.


Tadbirkorlik muhitining yanada yaxshilanib borishi hamda muqobil moliyalashtirish manbalarining cheklanganligi sharoitida xususiy sektorning investisiya loyihalarini moliyalashtirishda bank kreditlariga bo'lgan talab yuqoriligicha qolmoqda.

Ushbu yuqori talabni qondirish va tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadlariga jami 251,4 trln so'm (2022 yilga nisbatan qariyb 24 foizga ko'p) kredit mablag'lari yo'naltirilib, jami kredit qo'yilmalari qoldig'i qariyb 497 trln so'mga etdi.

Ajratilgan kreditlar hajmining o'sishi barcha iqtisodiyot tarmoqlarida kuzatilgan bo'lib, kredit qo'yilmalari qoldig'i sanoat sohasida (o'sish 10,7 foiz) 140,2 trln so'mni, qishloq xo'jaligida (12,3 foiz) 47,3 trln so'mni, transport va kommunikasiya sohasida (15,7 foiz) 34,3 trln so'mni, savdo va umumiy ovqatlanish sohasida (12,5 foiz) 32,5 trln so'mni hamda qurilish sohasida (18 foiz) 12,3 trln so'mni tashkil qildi.

So'nggi yillarda bir tomondan, tadbirkorlik muhitining yaxshilanishi hamda iqtisodiyotda davlat ulushining qisqarib borishi, ikkinchi tomondan, muqobil moliyalashtirish manbalarining cheklanganligi sharoitida xususiy sektorning investisiya loyihalarini moliyalashtirish uchun bank kreditlariga bo'lgan talabi yuqoriligicha qolmoqda.

Ushbu yuqori talabni qondirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llabquvvatlash maqsadlariga tijorat banklari tomonidan 2023 yilda 581 mingdan ortiq loyihalarga jami 160 trln so'm miqdorida yoki 2022 yilga nisbatan 1,3 barobarga ko'p kredit mablag'lari yo'naltirildi.



1-rasm. 2023-yilda toifalar kesimida tadbirkorlik faoliyatiga ajratilgan kreditlar ulushi

Manba: mualliflar tomonidan tuzildi.

Ushbu rasmda 2023 yilda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida ajratilgan kreditlar dinamikasini oylar kesimida ko'rsatadi. Kredit ajratish faoliyati yil boshidan yil oxirigacha turlicha bo'lib, may oyida eng yuqori darajaga etib, 1 496,0 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu oydagi yuqori ko'rsatkich, ehtimol, mavsumiy talab, davlat dasturlarining amaliy faollashuvi yoki yangi moliyaviy mexanizmlarning joriy qilinishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Har bir oyda xotin-qizlar uchun ajratilgan kreditlar miqdori yuqori bo'lib, deyarli barcha oylarda eng katta ulushni tashkil qilgan. Masalan, may oyida xotin-qizlarga 719 mlrd so'm miqdorida kredit ajratilgan. Bu holat xotin-qizlar tadbirkorligini rag'batlantirish siyosati samaradorligidan dalolat beradi.

Yoshlar uchun ham yil davomida barqaror ravishda kreditlar ajratilgan bo'lib, ayniqsa aprel va may oylarida ulushi yuqori bo'lgan (masalan, aprel — 438 mlrd so'm, may — 570 mlrd so'm). Bu yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari samaradorligini ko'rsatadi.

Boshqa guruhlariga ajratilgan kreditlar umumiy kredit miqdoriga nisbatan kamroq bo'lsa-da, barqaror saqlangan. Eng yuqori ko'rsatkich may oyida 206 mlrd so'mni tashkil etgan.

Yanvardagi juda past ko'rsatkich (54,8 mlrd so'm) va maydagi yuqori daraja mavsumiylik omillarining muhimligini ko'rsatadi. Yanvar — yil boshi, rejalashtirish va tayyorgarlik davri bo'lsa, may — faol investisiya va amalga oshirish bosqichi bo'lishi mumkin.

Umuman olganda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlat siyosatining segmentlangan yondashuvini aks ettiradi. Xotin-qizlar va yoshlar uchun kredit ajratishning yuqori ulushi inklyuziv iqtisodiy siyosatni, shuningdek, aholining iqtisodiy faol qatlamlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligini ko'rsatadi.

2023 yilida kichik va o'rta tadbirkorlikni, shu jumladan, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, xotin-qizlar va yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadlari uchun 573 mingdan ortiq loyihalarga jami 73 trln so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratildi.

Tadbirkorlarning loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha 2023 yilda tijorat banklari tomonidan xorijiy kredit liniyalari hisobidan hududlarda 16 mingga yaqin loyihalar uchun 3,2 mlrd dollarlik kreditlar ajratilgan, jumladan, to'g'ridan-to'g'ri (davlat kafolatisiz) jalb qilingan mablag'lar hisobidan 2,7 mlrd dollar (jami xorijiy kredit liniyalarining 86 foizi) miqdorida kreditlar yo'naltirildi. Bunda, 1,2 mlrd dollar miqdoridagi mablag'lar kichik va xususiy tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish uchun ajratildi.

2023 yilida sohalar kesimida xorijiy kredit liniyalari mablag'larining yo'naltirilishi qishloq xo'jaligiga hamda xizmat ko'rsatish sohalariga o'tgan yilga nisbatan deyarli o'zgarishsiz qolgan bo'lsa, sanoatga 1,5 barobarga, qurilishga 2,7 barobarga, savdo va umumiy ovqatlanish 1,6 barobarga va transport sohasiga 3,3 barobarga oshdi.

Global iqtisodiy noaniqliklar va jahon bozorida asosiy xomashyo mahsulotlari narxlarining keskin tebranishlari sharoitida ichki bozorni oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlashga erishish uchun ushbu sohani moliyaviy qo'llab-quvvatlash davom ettirilib, 2024 yil 1 yanvar holatiga oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bilan bog'liq loyihalarga jami ajratilgan kreditlar qoldig'i 23,8 trln so'mni tashkil qildi.

Ushbu kreditlarning 12,3 trln so'mi issiqxona (52 foiz), 4,2 trln so'mi chorvachilik (18 foiz), 2,4 trln so'mi muzlatgichli omborxona (10 foiz), 2,0 trln so'mi parrandachilik (8 foiz), 1,3 trln so'mi bog'dorchilik (5 foiz), 591 mlrd so'mi baliqchilik (2 foiz), 557 mlrd so'mi sabzavot va poliz mahsulotlarini etishtirish (2 foiz) va 372 mlrd so'mi go'sht va sutni qayta ishlash loyihalarini (2 foiz) moliyalashtirishga yo'naltirilgan.

2023 yilda tijorat banklari tomonidan savdo va xizmatlar sohasidagi tadbirkorlik sub'ektlarining qariyb 39 mingdan ortiq loyihalarini moliyalashtirish uchun 53,7 trln so'm miqdorida kredit mablag'lari yo'naltirildi.

Ushbu mablag'larning 23 trln so'mi xizmatlar sohasidagi loyihalarga, 16,9 trln so'mi savdo faoliyatiga va 13,8 trln so'mi xizmatlar sohasidagi tadbirkorlarning aylanma mablag'larini to'ldirish uchun ajratilgan.

Turizm faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun tijorat banklari tomonidan 3 548 ta tadbirkorlik sub'ektlariga 3,5 trln so'mdan ortiq kreditlar berildi. Ushbu ajratilgan kreditlarning 1,3 trln so'mi – mehmonxonalar faoliyatini rivojlantirish, 896,7 mlrd so'mi – restoranlar faoliyati, 449,3 mlrd so'mi – yo'lovchi tashish xizmatlariga, 112,8 mlrd so'mi – sport va sog'lomlashtirish turizmi hamda 43,1 mlrd so'mi – turistik agentlik va oromgohlar faoliyati uchun yo'naltirilgan.

2023 yilda ham Dasturlar amalga oshirilishi davom ettirilib, asosiy e'tibor, yoshlar va xotin-qizlarni daromadli mehnat bilan band qilishga qaratildi va hokim yordamchilari tavsiyalari asosida 472 mingdan ortiq loyihalariga jami 9,9 trln so'mdan ortiq imtiyozli kreditlar ajratildi.

Ushbu imtiyozli kreditlar hisobidan, yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash maqsadida 174 mingdan ortiq loyihalarga 3,8 trln so'm va xotin-qizlarning 262 mingdan ortiq loyihalariga 4,6 trln so'm yo'naltirildi. Dasturlar doirasida ajratilgan kreditlarning 369 mlrd so'mi (4 foizi) yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar, 9,5 trln so'mi (96 foizi) o'zini-o'zi band qilgan jismoniy shaxslar hissasiga to'g'ri keladi. Dasturlar doirasida barcha jarayonlar elektron imzo yordamida to'liq raqamlashgan holda: – kredit uchun ariza berish, qarz oluvchini scoring tahlil qilish, hokim yordamchilari tomonidan tavsiya berish, kredit hujjatlarini rasmiylashtirish, mahsulotni buyurtma qilish, monitoring hamda arizachini identifikatsiyalash oilakredit.uz platformasi; – mahsulot va asbob-uskunalar xarid qilish hamda xizmatlarga buyurtma berish bo'yicha hujjatlarni rasmiylashtirish erkin tanlov va raqobat muhitiga asoslangan "marketpleys" elektron savdo maydoni (smart-market.uz) orqali amalga oshirilmoqda.

Xulosa va takliflar.

O'zbekistonda banklarning investitsion faoliyatini rivojlanish istiqbollari quyidagicha:

- banklarning investitsion riskini sug'urtalash tizimini ishlab chiqish va qo'llash, investitsiya va risklarni sug'urtalash fondini tashkil etish;
- qimmatli qog'ozlar bozorida banklar faoliyatini reyting baholashini ishlab chiqish va qo'llash;
- qimmatli qog'ozlar bozorida banklar va sug'urta kompaniyalarning investitsion faoliyatini faollashtirish;
- milliy qimmatli qog'ozlar bozorini xalqaro fond birjalar bilan integratsiyalashuvini ta'minlash, bu esa banklarning investitsion faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuni ta'kidlash joizki tijorat banklarining kredit portfeli muttasil o'sishi hamda sifati yaxshilanishini ta'minlash, investitsiyalarni bank kreditlari hisobiga moliyalashtirishni

takomillashtirishda, shuningdek kreditlar bo'yicha muammoli qarzlarning hosil bo'lishiga yo'l qo'ymaslik borasida quyidagi keltirib o'tilgan takomillashtirish yo'llarini amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

- loyihalarni tanlash, ekspertiza qilish va xatarni baholash tizimi takomillashtirish zarur, bunda investitsiya loyihalarini ekspertizadan o'tkazish va moliyalashni tashkil etish bo'yicha tijorat banklarining maxsus xizmatlari malakali mutaxassislar bilan mustahkamlash kerak bo'ladi;

- jahonning eng barqaror banklari tajribasini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan zamonaviy uslubiyotlar asosida banklar mijozlarining kreditga layoqatlilikini skoring-tahlil qilish tadbirlari amalga oshirilmoqda huddi manshu jarayonni ichki nazorat qilishni amalga oshirish;

- tijorat banklari kredit portfeli monitoringini amalga oshirish mexanizmi yanada kuchaytirish va takomillashtirish bo'yicha zarur choralar ko'rish. Bunda garovga olingan mulkning doimiy bozor qiymatini hisobga olgan holda berilgan kreditlar ustidan monitoringni kuchaytirish va garovdagi mulk bahosi tushib ketgan vaziyatda zudlik bilan tegishli choralar ko'rish borasida tegishli ishlar amalga oshirish;

- banklar kredit portfelini diversifikatsiya qilishni kuchaytirish, risklarning bir qarzdorda (yoki o'zaro bog'liq qarzdorlar guruhi), kreditlash obyektida, faoliyat turi va tarmoqda to'planishini nazorat qilish mexanizmlari yanada takomillashtirish;

- har bir kredit ajratilayotgan loyiha bo'yicha pul oqimi va daromadlar etarli darajada bo'lishiga alohida e'tibor berish;

- birgalikda yangi xizmat turlarini yaratish va tavakkalchilikni diversifikatsiyalashda tijorat banklari bir birlar bilan va sug'urta kompaniyalarining birgalikdagi amaliyotlari yanada kengaytirish;

- banklar kapitallashuv darajasini oshirish, bank sohasiga xususiy kapitalni jalb etish, qo'shimcha aksiyalarni chiqarish va ularni fond bozorlarida joylashtirish orqali banklarning jami kapitalini yil mobaynida kamida 20 foizga o'sishini ta'minlash borasida tegishli ishlar amalga oshirish;

- ko'rsatilayotgan bank xizmatlarining turi va ko'lamini kengaytirish yo'li bilan aholi hamda xo'jalik subyektlarining bo'sh mablag'larini bank aylanmasiga keng jalb etishda ta'sirchan rag'batlantirish choralari amalga oshirish;

- kreditlashning resurs manbalarini shakllantirishda asosiy e'tibor ichki imkoniyatlarga, ya'ni aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning bo'sh pul mablag'larini bank aktivlariga jalb qilish hamda uzoq muddatli obligatsiyalar va depozit sertifikatlarini chiqarish va pul bozorida joylashtirishga qaratirish;

- tijorat banklari tomonidan xo'jalik birlashmalari va yirik korxonalar bilan investitsion loyihalarning loyiha va boshqa xujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha injiniring kompaniyalarni tashkil etish ishlari olib borish;

- moliya bozori infratuzilmasini yanada mustahkamlash yo'li bilan aholi hamda xo'jalik subyektlarining bo'sh mablag'larini bank aylanmasiga keng jalb etish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirish;

- tijorat banklarni o'zgaruvchan bozor holatiga o'z vaqtida va to'g'ri baho berish qobiliyatiga ega bo'lgan yuqori malakali kadrlar bilan mustahkamlash borasida tijorat banklari xodimlarining uzluksiz ravishda o'quv kurslar va seminarlarda malaka oshirilishi ta'minlash zarurdir.

Adabiyotlar /Jumepamypa/Reference:

Avramovic, D. (1995). *Capital markets and investment financing in developing countries*. Washington, D.C.: World Bank.

Demirgüç-Kunt, A., & Maksimovic, V. (2002). *Funding growth in bank-based and market-based financial systems: Evidence from firm-level data*. *Journal of Financial Economics*, 65(3),

337–363. [https://doi.org/10.1016/S0304-405X\(02\)00144-9](https://doi.org/10.1016/S0304-405X(02)00144-9)

Ergashev, S. (2019). Zamonaviy moliyalashtirish mexanizmlari orqali investitsion faollikni oshirish yo'llari. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, (2), 112–118.

European Bank for Reconstruction and Development (EBRD). (2023). *Transition Report 2023: Business Unusual*. London: EBRD. <https://www.ebrd.com/news/publications/transition-report.html>

Haydarov, B. (2020). Investitsion loyihalarni tijorat banklari orqali moliyalashtirishda dolzarb muammolar va ularni hal etish yo'llari. *Bank ishi va moliya*, (4), 45–51.

Levine, R. (2005). *Finance and growth: Theory and evidence*. In P. Aghion & S. N. Durlauf (Eds.), *Handbook of Economic Growth* (Vol. 1A, pp. 865–934). Elsevier. [https://doi.org/10.1016/S1574-0684\(05\)01012-9](https://doi.org/10.1016/S1574-0684(05)01012-9)

Makhmudov, S., Imomkulov, T., Khamdamov, S. J., Mamadiyarov, Z., Mambetjanov, K. K., Najimadinov, R., ... & Narbekova, Z. T. (2024, July). The Effect of Inflation and Credit Interest Rates on Investment Activities in Emerging Economies: A Case Study of Uzbekistan. In *International conference on WorldS4* (pp. 547–556). Singapore: Springer Nature Singapore.

Mamadiyarov, Z. (2022). Рақамли Трансформация Жараёнида Банк Хизматларини Масофадан Қўрсатишни Инновацион Ривожлантириш Истиқболлари Зоқир Мамадияров. *Scientific Journal of "International Finance & Accounting"*.

Mamadiyarov, Z., Makhmudov, R., Qurbonbekova, M., Mahmudova, M., & Sattorova, N. (2022). Ensuring the Stability of Banks During Covid-19 Pandemic. *Journal of Financial Technology and Innovation*, 1(2), 15–21.

Mazloev, V., Fiapshv, A. B., & Kumekhov, K. K. (2023). Bank credit and its role in real investments of non-financial organizations in conditions of macroeconomic instability and regional differentiation. *Экономика Сельскохозяйственных и Перерабатывающих Предприятий*, 2, 39–48. <https://doi.org/10.31442/0235-2494-2023-0-2-39-48>

Nnaemeka, N., & Dara, B. I. (2022). The role of bank loan and informal financial institution financing on investment: evidence from nigeria. *American Journal of Economics*, 6(2), 1–25. <https://doi.org/10.47672/aje.1022>

Power, G. J., & Mbianda, D. C. T. (2022). Should lenders also advise? Evidence from project loans. *Journal of Financial Research*, 45(4), 961–985. <https://doi.org/10.1111/jfir.12304>

Shtefan, N. M. (n.d.). Bank's Credit and Investment Portfolio Structure Optimization. <https://doi.org/10.33271/ebdut/76.145>

Toshtemirovich Mamadiyarov, Z., Adhambek ugli Sulaymanov, S., Anvar ugli Askarov, S., & Bakhtiyor kizi Uktamova, D. (2021, December). Impact of Covid-19 Pandemic on Accelerating The Digitization and Transformation of Banks. In *Proceedings of the 5th International Conference on Future Networks and Distributed Systems* (pp. 706–712).

Toshtemirovich, M. Z. (2021). Innovative Approaches of Remote Banking Types Services in the Process of Transformation of Banks to E-Commerce. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 1, 1–9.

World Bank. (2021). *Financing for development: Unlocking investment for stronger growth*. World Bank Publications. <https://www.worldbank.org/en/publication>

Мамадияров ЗТ. Тижорат банкларида масофавий банк хизматларини ривожлантиришдаги муаммолар. *Экономика и финансы (Узбекистан)*. 2019(3):18–27.

Мамадияров, З. (2023). Ўзбекистонда банк хизматларини рақамли трансформация қилишга таъсир этувчи омиллар таҳлили. *Страховой рынок Узбекистана*, 1(4), 39–45.